

Istanbul: Yaqin insoningiz bilan sayohat qilish uchun 5 g`oya

2022 20 Yanvar

14-fevralgacha hali vaqt ko'p bo'lsa-da, Uzbekistan Airways jamoasi allaqachon Istanbulni kezish uchun 5 g'oyani tayyorlab qo'ygan:

1. Shahzodalar oroli ko'chalarida otda sayr qiling va o'zingizni ertak qahramonlaridek his eting.
2. Osma yo'l bilan Pyer Loti tepaligiga ko'tariling. U yerda siz olmalı choy yoki an'anaviy turk qahvasini ta'tib ko'rishni unutmang.
3. Shahar manzarasi kaftdek namoyon bo'ladigan Galata minorasiga tashrif buyuring va minora hududidagi restoranda karamel qaylali an'anaviy Trileche pirogini ta'tib ko'ring.
4. Uskudar qirg'og'i bo'ylab piyoda kezib, Qiz minorasining go'zalligini his qiling, rang-barang do'konlar joylashgan hududning sokin ko'chalari bo'ylab sayr qiling.
5. Bosfor bo'g'ozida sayohat qiling, o'zingiz bilan chag'alay qushlari uchun don olib borishni unutmang va Qiz minorasi hududida tushlik qiling.

Uzbekistan Airways bilan birgalikda siz deyarli har kuni O'zbekistonning to'rtta nuqtasidan: Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Urganchdan Istanbulga sayohat qilishingiz mumkin.

Toshkent – Istanbul yo'nalishida aviachipta narxi 2 659 000 so'mdan, Toshkent – Istanbul – Toshkent yo'nalishidagi esa 4 057 000 so'mdan boshlanadi.

Samarqand, Farg'ona va Urganchdan Istanbulgacha aviachiptalar narxi 2 597 000 dan, borib-kelish aviachiptalari esa 3 995 000 so'mdan boshlanadi.

Narxlar 19.01.2022 holatiga ko'ra amal qiladi.

Izohlarda Istanbuldagi sevimli manzillaringizni biz bilan bo'lishishni unutmang.

Telegram: t.me/uzbekistanairways